

ALISHER NAVOIYNING “TARIXI ANBIYO VA HUKAMO” ASARIDA PAYG‘AMBARLAR TALQINI

Boyzoqova Dilnavoz Uzoq qizi,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o‘zbek tili va adabiyoti universiteti o‘qituvchisi
E-mail: afifa2480@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada Alisher Navoiyning “Tarixi anbiyo va hukamo” asarida payg‘ambarlar talqini, uning o‘rta asr sharq adabiyotidagi o‘rni hamda badiiy va tarixiy xususiyatlari tahlil qilinadi. Asarning an’anaviy “qisasi anbiyo” janri bilan bog‘liqligi va o‘ziga xos jihatlari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: payg‘ambarlar talqini, Tarixi anbiyo va hukamo, Alisher Navoiy, qisasi anbiyo, o‘rta asr adabiyoti.

Аннотация. В данной работе анализируется интерпретация пророков в произведении Алишера Навои «Тарихи анбиё ва хукамо», его место в средневековой восточной литературе, а также художественные и исторические особенности. Освещаются связи произведения с жанром «кисас аль-анбия» и его своеобразие.

Ключевые слова: интерпретация пророков, Тарихи анбиё ва хукамо, Алишер Навои, кисас аль-анбия, средневековая литература.

Annotation. This study examines the interpretation of prophets in Alisher Navoi’s work “Tarixi anbiyo va hukamo,” its role in medieval Eastern literature, and its artistic and historical features. The paper also highlights its connection with the “Qisas al-anbiya” genre and its distinctive aspects.

Key words: interpretation of prophets, Tarixi anbiyo va hukamo, Alisher Navoi, Qisas al-anbiya, medieval literature.

Kirish. Ulug‘ mutafakkir Alisher Navoiyning lirik merosi o‘zbek mumtoz she’riyatining buyuk xazinasi bo‘lsa, uning qator asarlari o‘zbek nasrining ajoyib namunalari sanaladi. Xususan, biz o‘rganayotgan «Zubdat ut-tavorix» nomi ostida jamlangan «Tarixi anbiyo va hukamo», «Tarixi mulki Ajam» - «Arab bo‘lmagan musulmon mamlakatlari tarixi» asarlari tasvir, uslub, ifoda va yozilish maqsadi nuqtayi nazaridan alohida qiymat kasb etadi. Mazkur asarlarni o‘rganish asosida o‘zbek nasri taraqqiyoti, aynan payg‘ambarlar tarixi mavzusining yoritilishi, asarning bosh g‘oyasi, obrazlar tasviri va takomili hamda asarning tarixiy-badiiy qimmatini, ulug‘ ijodkorning bu boradagi o‘ziga xos yondashuvlari aniqlanadi va ma’lum xulosalarga kelinadi. Bu xulosalar adabiyot tarixining mavzuga doir nazariy masalalarini hal etishda muhim o‘rin tutadi.

Adabiyotlar tahlili. O‘rta asr sharq adabiyotida payg‘ambarlar, umuman olganda, buyuk shaxslar haqida asar bitish an’ana shaklini olgan. Bu sohadagi ilk namunalari arab adabiyotiga oid. X-XI asrlarda Muhammad ibn Jarir at-Tabariyning «Tarix-ur-rasul va-l-muluk» («Payg‘ambarlar va podshohlar tarixi») nomli kitobi shu turga oid eng mashhur asarlardan sanaladi. Bunday asarlar ko‘p tillar qatori keyinchalik turkiy tilga ham tarjima qilingan. Biroz keyinroq tarjimalar asosida turkiy tillarda shu turga mansub asarlar yuzaga kelgan. Nosiriddin Rabg‘uziy qalamiga mansub «Qisasi anbiyo» ham ana shunday asarlar

sirasiga kiradi. Adabiy an'analardan farqli o'laroq o'ziga xos uslubda bitilgani bilan e'tiborga molikdir. Undagi uslub o'zidan keyingi asarlarga namuna vazifasini o'tagan. Adabiyotshunosligimizda payg'ambarlar tarixiga doir kitoblarning yaratilishi, mazkur asarlarning yozilish sabablari, muallifning maqsadi, asarning tuzilishi, badiiy xususiyatlari, tarixiy ahamiyati kabi masalalarni o'rganish nihoyatda muhim. Afsuski bu muhim masala o'zbek adabiyotshunosligida (davr taqozosi yoxud boshqa sabab bilanmi) keng tadqiq etilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada "Tarixi anbiyo va hukamo" kompozitsiyasida Navoiy o'zining ilg'or g'oyalarini o'tmishdan saboq sifatida gavdalantirgani, eng go'zal ibrat payg'ambarlar tarixi ekani, ulug' mutafakkir insoniyat tamaddunida odamzod o'tmishining qiymati qanday ekanini o'ziga xos badiiy shakllarda xos va mos ifodalagani tadqiq etilgan.

Tahlillar va natijalar. Tarix – insoniyat kechmishi, kechagi kun. U bugun va kelajakning poydevori. Tarix nafaqat ajdodlar, balki avlodlar qismatiga ham daxldor. Tarixni o'rganish orqali bugunning g'oyaviy, siyosiy, ijtimoiy, huquqiy, ma'naviy va axloqiy muammolarini hal etish, chorasizlikka chora topish mumkin. O'zini o'nglamoq, har jihatdan yuksalmoqni istagan inson, albatta, tarixga murojaat qiladi, o'tmishdan xulosa chiqaradi, ibratlanadi. Tarix aslida voqelik jihatdan jonsiz, undagi harakatlar poyoniga yetgan, tugallangan. Qolaversa, sahifalar qatidagi voqea-hodisalarni o'rganishga hammaning ham rag'batini bo'lmaydi. Harakatdagi zamon odami jonli tarixga qiziqadi. O'tmish yashalayotgan davr nafasiga hamohang bo'lsagina, qabul qilinadi, yo'qsa, bir guruh mutaxassislar shuuri va solnomalar qatida qolib ketishga mahkum bo'ladi. Xo'sh, tarixni qanday qilib jonlantirish va bu ulkan ibrat maktabidan doimiy saboq olishga erishish mumkin? Bu o'tmishni badiiy kashf etish, olis voqelikni o'quvchiga zamon ruhida yetkazish orqali amalga oshadi. Tarix so'z, adabiyot vositasida zamondan zamonga ko'chadi. Badiiy so'z qumtepalar ostidagi hayotga ruh beradi, quruq bayondan iborat va unutilgan xotirotni tasavvurda jonlantiradi, qalbgga olib kiradi. Insoniyat tarixida eng peshqadam sifatida tanlangan zotlarning nomi asrlar oshib kelayotganining bir sababi ham shu. Ularning hayot tarzi, iymon-e'tiqodi, so'z va amallari faqatgina solnomalarda qayd etilmagan, balki xalq og'zaki ijodi, shuningdek, yozma manbalar: doston, qasida, hikoyat, masnaviyalar orqali xalqqa yoyilgan. Real o'tmish solnomalardan ko'ra badiiy so'z qanotida kengaygan, kelajakka o'tgan. Shu ma'noda "Haqiqiy tarixni tarixchi emas, ijodkorlar yaratadi" degan fikrga qo'shilish mumkin.

O'zbek mumtoz adabiyotini har jihatdan takomil etgan ulug' mutafakkir Alisher Navoiy ijodida ham tarix mavzusi alohida o'rin tutadi. Ulug' shoir o'zi e'tirof etganidek, "... yozuv qorasi zulmatidan "Zubdat ut-tavorix"ni yaratib, podshohlarning o'lgan nomini bu tiriklik suvi bilan tirgizgan"dir. Tarixlar qaymog'i sanalgan bu asarda ikki kitob: "Tarixi anbiyo va hukamo" va "Tarixi muluki ajam" jamlangan bo'lib, unda payg'ambarlar tarixining badiiy so'z vositasida zamondan-zamonga o'tishi, ijodkorning bu

boradagi individual yondashuvi, talqin va badiiy mahorat masalalari ilmiy-nazariy jihatdan tasvirlangan. Jamiki dinlarda mavjud bo'lgan, sayyor syujetlarga ham aylanib ulgurgan Odam ato va Momo Havo qissasida insoniyatning otasi bo'lmish Odam a.s. o'z taqdirilarida bitilgan mudhish xatoni sodir etganlaridan so'ng juftlari bilan yerga quvg'in qilinislari (jannatdan o'zga har qanday makon quvg'inlikdan o'zga narsa emas chamamda) va ana shu voqeadan boshlab inson va shayton kurashi, yovuzlik va ezgulik kurashiga qiyomatga qadar ibtido ochilganining achchiq haqiqati tasvirlanadi. Navoiy bu hikoyatda Alloh taolo Odam a.s.ga jamiki narsaning ismini o'rgatishi, maloyikai muqarrablar esa uning ilmiga mu'tarif bo'lib, sajda qilishlarining mohiyatini bizga tushuntirar ekan, yuqoridagi og'ir kurashda insonning g'alabasi uchun eng muhim qurol ilm ekanini ta'kidlamoqchi bo'ladi. Vaholanki, Haq taoloning: "Jin va insonni faqat Menga ibodat qilishlari uchungina yaratdim", – degan qavli ibodatdan murod Allohni tanish ekanligi, Uni tanigangina chin ibodatga musharraf bo'lishi, bunga ilmsiz, ma'rifatsiz yetib bo'lmasligini ilohiy kalomlar ila isbot etadi. Bejizga ilk Qur'oniy oyatlar ham "Iqro" kalimasi bilan boshlanmagan. Qobil va Hobil fojeasi bilan nihoyalangan ushbu hikoyatdan so'ng Navoiy o'z badiiy g'oyasini keltirilgan ruboiy orqali ifoda etadi:

Odamniki, haq lutf ila mavjud etti,

Majmui mulk xaylig'a masjud etti.

Oxir tanidin ruhni manqud etti,

Ul navki, nobud edi, nobud etdi.

Bu to'rtlik orqali insoniyatga buyuk eslatma bor. Har qanday bud bo'lgan – yaratilgan inson borki, nobudlikka – o'limga oxir-oqibatda, albatta mahkum ekani, Haq lutfi ila yaratilgan, maloikalar sajda qilgan payg'ambar ham bu taqdirdan qocha olmasligi, tug'ildingmi o'liming tomon qadamlaring yaqinlashib borar ekan ilm yo'lini, nabiiylar, ulamolar, hakimlar yo'lini tutmasang omonat hayotingni abdiy do'zax uchun bag'ishlab qo'yishing mumkinligidan ogohlantiradi. Ketma-ketlikda kelgan jamiki payg'ambarlar, ulamolar hayoti bizga namuna bo'lishi, yaratilishimizning tub o'zagi nima ekanini xulosa qilishimiz uchun Navoiy aynan shu asarga qo'l uradi.

Keyingi hikoyatda keladigan Shis a.s. ham Odam a.s. vazifalarini davom ettirishini, kufrga botgan, faxshga ruju qo'ygan Qobil avlodi ustiga sipoh tortib, bir qadar dunyoni chirkinliklardan poklaganliklari haqida hikoya qilib, qaysi yo'lni tanlagan inson bo'lmasin oqibat unga: "Oxir boriga ajal buyurur ta'jil", - yillab umr ko'rgan bo'lsang ham qay yo'lni tanlashni fikr qil deya nasihat qiladi.

Asli payg'ambar bo'lmasa-da, lekin valiylikdan nasibador shaxs bo'lgan Anush shoh ham insonlarni Haqqa da'vat qilib, ilk bor hurmo daraxtini ekkan, saadaqani joriy qilgan solihlardan edi. Undan keyin asarda yana uch podshoh haqida so'z ketib, ularning ham yuksak axloqlari Navoiy qalamidan chetda qolmaydi. Ular Qinon binni Anush, Mahloyil binni Qinon, Yazid binni Mahloyillar bo'lib, ularning kentlar tashkil qilganlari, qush va baliq go'shtini yeyishlikni boshlab berganlari, ariqlar qazib suv chiqarganlari, ko'p nikoh

qurganlari haqida soʻz ketganidan Shis va Idris alayhissalom oʻrtasida toʻrtta hukmdor oʻtgan maʼlum boʻladi. Idris alayhissalom suryoniy paygʻambar boʻlib, xalq uni “musallasun-naʼma” derdiki, sababi u uchinchi paygʻambar, uchinchi podshoh, uchinchi hakim edi. Xat va yulduz ilmini u paydo qiladi, shuningdek kiyim kiyish va ovqatyeyish undan bizga meros qoldi. Haq taolo unga oʻttiz sahifa nozil qilgan hamda undan to Nuh a.s. zamonigacha toʻrt yuz oʻttiz toʻrt yil oʻtgan maʼlum qilinadi.

Yaʼnikim Idris hakimu podshoh boʻlsa-da, jahon ichrabiror kishi tirik qolmadi, deya Navoiy hayotningachchiq haqiqatini yana bir karra eslatadi.

Matushlax binni Axnux ismli shoh haqida soʻz ketgach, navbat ilk ululazim paygʻambar Nuh alayhissalomga keladi. Bahiyulloh uning laqabi boʻlib, ushbu paygʻambar insoniyat tarixida tub burilish yasagan nabiylar sirasiga kiradi.

Jumladan, uning oʻgʻillaridan turli xalqlar tarqagani, ular esa turli tillarda soʻzlasha boshlagani soʻzimizning dalili boʻla oladi. Nuh a.s. ham boshqa paygʻambarlar singari oʻz xalqini Haqqa 952 yil daʼvat qilishiga qaramay aksariyat aholi unga ergashmadi aksincha uni masxaralashgacha borishdi. Ana shundan keyin Alloh taolo oʻz rasuliga bir kema yasashlikni buyurdi. Ushbu kemada unga ergashgan sakson kishi hamda hayvonlardan juft-juft qilib olishlik amr boʻldi. Alqissa oʻsha mashhur toʻfon voqeasi sodir boʻldiki, natijada ham osmondan suv yogʻar edi, ham yerdan qaynab chiqar edi, kemaga chiqqanlardan tashqari yer yuzida biror tirik jon qolmay bari halok boʻldi. Nuh kemasi Alloh irodasi bilan ikki marta mashriqdan magʻribga, yana bir marta magʻribdan mashriqqa borib kelgach va nihoyat Judi togʻi ustida toʻxtadi. Ana shu joyda Nuh a.s. bir shahar bunyod etdilar. Bu hikoyatda real dalillardan biriga eʼtiborni qaratish foydadan holi boʻlmaydi. Odam a.s. zamonidan Nuh a.s. zamonigacha ikki ming besh yuz yil, Nuh davridan Ibrohim a.s. davrigacha bir ming besh yuz yil, Ibrohim a.s. dan Muso a.s. gacha toʻrt yuz oltmush yil va Muso a.s. dan Iso a.s. davrigacha bir ming toʻqqiz yuz oʻttiz yil, Iso a.s. dan paygʻambarimiz Muhammad s.a.v. davrlarigacha bir yuz sakson yil voqe boʻlgan. Alisher Navoiy oʻzining barcha asarlarida paygʻambarlar obrazini betakror badiiy ifodalar bilan tasvirlagan. Ulugʻ shoir nabiylar obrazini yaratishda ham bir narsani – oʻlim muqarrar ekanligini kuzatadi va paygʻambarlar ham bu qismat oldida ojiz ekanligini, Alloh belgilagan taqdirni hech bir inson oʻzgartira olmasligini badiiy tarzda ifodalaydi, shu asosda nabilarning koʻz ilgʻamas xislatlarini ham yoritib beradi.

Xulosa. Alisher Navoiyning tarixiy asarlarining yozilish uslubi ungacha yaratilgan tarix kitoblari uslubidan ancha farq qiladi. Aytish mumkinki, birinchidan, Navoiy chuqur mazmunga ega boʻlgan “Tarixi anbiyo va xukomo”ni yozish bilan oʻzbek tilida tarixiy asar yozishning yangi bir uslubini ham yaratdi. Ikkinchidan, bu asari bilan Navoiy oʻtmishni oʻz yashagan davrining ijtimoiy – iqtisodiy masalalariga bogʻlab yorituvchi, tarixni izohlashda xalq va mamlakat manfaatlarini koʻzlovchi tarixchi sifatida maydonga chiqdi. Uchinchidan, davr ijtimoiy uslubi anʼanalari chegarasida ish yuritgan shoir tamoman yangi ruhda bitilgan tarixiy asarlarini ham sheʼriy sanʼatlar bilan ziynatladi.

Ammo bu asarlardagi badiiy bezak Navoiyning boshqa barcha asarlaridan poetik jihatdan farq qiladi. Alisher Navoiyning nubuvvat haqiqati va nabiylar obrazlari badiiy talqini XIV-XV asrlar o'zbek mumtoz adabiyotida umumilliy va bashariy mavzu sifatida keng o'rin egallagan. Bugungi davr ijtimoiy hayotida sodir bo'layotgan global muammolar islom ifoda etgan muqaddas qadriyatlar, ezgu va insonparvar tuyg'ular amaliga ehtiyoj tug'dirmoqda. O'zbek adabiyotida nubuvvat haqiqati va obrazlari talqini islom madaniyatining ana shunday umuminsoniy qarashlari badiiy ifodasi sifatida dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Akram B. Fasohat mulkining sohibqironi. – T.: O'zbekiston, 1991.
2. Alisher Navoiy: qomusiy lug'at. (Ma'sul muharrir: Sh. Sirojiddinov) – Toshkent: "Sharq", 2016.
3. Alisher Navoiy: qomusiy lug'at. (Ma'sul muharrir: Sh. Sirojiddinov) – Toshkent: "Sharq", 2016.
4. Qur'onshunoslik (O'quv qo'llanma). – Toshkent: "Toshkent islom universiteti" nashriyot-matbaa birlashmasi. 2011.
5. <https://xabar.uz/madaniyat/shavkat-mirziyoyev-adabiyot-san'at-va-7-08-2018>;

